
DEBAT QIZG'IN O'TDI

Joriy yilning 12 noyabr kuni Xalqaro matbuot markazi Farg'ona viloyati bo'limida siyosiy partiyalar vakillari ishtirokida saylovoldi targ'iboti doirasida debat o'tkazildi.

Debatda ommaviy axborot vositalari va blogerlar ham ishtirok etdilar.

Farg'ona viloyati Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi boshlig'i, "Milliy tiklanish" demokratik partiyasidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodi tavsiya etilgan partiya faoli Umidjon Jabborov, shuningdek, O'zXDP, O'zLiDeP, "Adolat" SDP, Ekologik partiyalarning vakillari ikki soatdan ortiq vaqt davomida jurnalist va blogerlarning ko'plab savollariga javob qaytardilar.

Debat viloyat televideniyesi, "Ruxsor" telekanali, viloyat radiosi, bosma OAVlar va ijtimoiy tarmoqlarda yoritilishi ko'zda tutilgan.

2019-11-13 08:46:43